

## DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH SARI MUHIM QADAM

Masharipova Ma'rifat Rustambekovna  
Xorazm, viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.

Bahodirov Izzatbek Umidjon o'g'li,

Boltayeva Shoxista Yoqubjon qizi  
Xorazm, viloyati yuridik texnikumi o'quvchilari.

Shavkat Mirziyoyev  
Xalq davlat idoralariga emas, balki  
davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak.

### Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimizga fuqarolik xizmatini takomillashtirishga qaratilgan muhim qonun - «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi qonunning ahamiyati, mazmun-mohiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat, fuqaro, qonun, fuqarolik xizmati, normativ-huquqiy hujjatlar, fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari.

Davlat har bir sohada o'z faoliyatini olib borar ekan, mavjud tizimni tartibga solish va takomillashtirish uchun huquqni qo'llashda muhim hisoblangan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish orqali amalga oshiradi. Davlat boshqaruvi hamda jamiyat hayotida qabul qilinayotgan qonunlarning o'rni juda ahamiyatlidir. Har bir soha bir-biriga bog'liq bo'lganligi sababli, bir sohada amalga oshirilgan islohotlar boshqa sohaga albatta ta'sir etadi. Buni biz yurtimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan yangiliklar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat xizmati faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4472-sonli Qarorining qabul qilinishi davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Ushbu qarorlarning mantiqiy davomi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 8-avgust kuni «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi qonunni imzoladi. Mazkur qonunga asosan **davlat fuqarolik xizmati** deganda «davlat xizmatining bir turi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyati tushuniladi». Qonun davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etiladi. U prezident, qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari, Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi hamda boshqa mahalliy davlat hokimiyat organlari deputatlari, yuqori va quyi palatalar devonlari xodimlari, Markaziy saylov komissiyasi a'zolari, sudyalar va sud tizimi xodimlari, Markaziy bank boshqaruvi a'zolari, prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, Milliy gvardiya, Davlat bojxona qo'mitasi va DXX organlarida xizmat qilayotganlar, shu jumladan, harbiy xizmatchilar, qolaversa, davlat organlarining texnik, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xodimlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

#### **Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:**

- Davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi;
- qonuniylik;
- adolatlilik;
- xalqqa xizmat qilish;
- davlat organlarining va mansabdor shaxslarining jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'ulligi;
- inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- xolislik, professionallik va kompetentlik;
- davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston fuqarolarining teng huquqliligi;
- davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi.

Qonunga muvofiq, **davlat fuqarolik xizmati sohasidagi maxsus vakolatli organ** etib Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi belgilanmoqda. U o'z vakolatlari doirasida davlat idoralarining kadrlar siyosati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, davlat xizmatiga kadrlarni tanlov asosida tanlashni tashkil qiladi, davlat xizmatchilarining samaradorligini baholash uchun indikatorlar (asosiy ko'rsatkichlar) tizimini joriy qiladi va ularning natijalarini tahlil qiladi, jamoatchilik fikrini o'rganadi va davlat organlari rahbarlarining ochiq reytingini shakllantirishda ishtirok etadi.

O'zbekiston fuqarosi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e'tiboran davlat fuqarolik xizmatchisi (DFX) huquqiy maqomiga ega bo'ladi va davlat fuqarolik

xizmatchisining faoliyati tugatilishi munosabati bilan uni yo'qotadi. DFX lavozimlarining siyosiy guruhiga taalluqli davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha huquqlar, majburiyatlar va cheklovlar alohida qonunchilik bilan belgilanadi.

**Davlat fuqarolik xizmatchisi quyidagi huquqlarga ega:**

- o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;
- kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirish;
- davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;
- mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;
- o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;
- mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;
- davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;
- DFXdagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda davlat himoyasi bilan ta'minlanish;
- o'zining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi.

Shuningdek, agentlik davlat xizmatchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda hamda ularning ishlashi va ijtimoiy himoyasi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishda yordam ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida, har qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinar ekan, ular avvalo, jamiyat va davlat manfaatlari, xalq farovonligi va eng muhimi yurt ravnaqi uchun xizmat qilmog'i darkor. Biz fuqarolar davlat hayotida amalga oshirilgan islohotlarga befarq bo'lmagan holda o'z faolligimizni namoyon etishimiz, huquqiy ongimizni, huquqiy madaniyatimizni oshirishimiz zarurdir. Buning uchun qonunchilikda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangiliklardan eng birinchilardan bo'lib xabardor bo'lishimiz va o'zgalarga ham yetkazmog'imiz lozim. Zero, xalqining ma'naviyatli va huquqiy ongi kuchli bo'lgan davlat qudratli bo'ladi. Buning natijasida, o'z huquq va burchlarini anglagan har qanday ongli inson huquqqa xilof harakat qilish bu g'ayriqonuniyligini, huquqiy oqibat keltirib chiqarishini va buning natijasida tegishli tarzda javobgarlikka tortilishi mumkinligini tushunib yetadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 8-avgust kuni «Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4472-sonli Qarori.
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz).